

**PROKURORNING JINOYAT PROTSESSIDA QAMOQQA OLISH EHTIYOT  
CHORASINI TANLASHDA O'RNI VA VAKOLATLARI**

**Abdunazarov Sevdiyor Dilshod o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-o'quv kurs 320-guruh kursanti*

**Irisqulova Laylo Dilshod qizi**

*Mustaqil izlanuvchi*

**Ahmadov Anvarjon Turg'un o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-o'quv kurs 320-guruh kursanti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada qonunlarni ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokuorning tushunchasi. O'zbekiston Respublikasida Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashda prokuorning vakolati uning mazkur ehtiyot chorasini qo'llashda roziligining o'rni va ahamiyati yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Qamoq, qamoqqa olish, prokuor, ehtiyot choralari, nazorat predmeti, sanksiya.*

**Аннотация:** В этой статье Понятие прокурора, осуществляющего надзор за исполнением законов. Полномочия прокурора при применении меры пресечения в виде заключения под стражу в Республике Узбекистан освещены роль и значение его согласия в применении данной меры пресечения.

**Ключевые слова:** заключение, заключение, прокурор, меры предосторожности, предмет надзора, санкция.

**Annotation:** in this article, the concept of the prosecutor who exercises control over the execution of laws. The role and importance of the prosecutor's competence in the application of a precautionary measure in the form of imprisonment in the Republic of Uzbekistan in the application of this precautionary measure is highlighted.

**Keywords:** imprisonment, imprisonment, prosecutor, precautions, subject of control, sanction.

O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuori va unga bo'y sunuvchi prokuorlar amalga oshiradi<sup>1</sup>

Tushuntirilsinki, qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining sudlarga o'tkazilishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19, 25-moddalarida xalqaro huquqning umumie'tirof etilgan normalarida mustahkamlangan qoidalarga mos bo'lib, jinoyat ishida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilingan shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasi samarali bo'lishiga erishishga qaratilgan<sup>2</sup>

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 118-moddasi manba Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-20596>

<sup>2</sup> 2007-yil 14-noyabrdagi Sudga qadar ish yuritish bosqichida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasining sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risidagi 16-son Oliy sud plenumining qarori Manbaa Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-1595235>

**Prokuror** (lat. *procurare*-boshqarish, biror narsani bilish, g'amxo'rlik qilish)-ayblovning asosiy sud vakili. Prokuratura-jinoiy ish bo'yicha sud jarayonida jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxsga qarshi dalillarni taqdim etish uchun mas'ul tomon.

Prokurorlarning funktsiyalari turli mamlakatlar turli xil va asosan tarixiy sharoitlar bilan belgilanadi.

Asosan MDH mamlakatlarida prokuror qonunlarning aniq bajarilishi ustidan yuqori nazoratni amalga oshiradi, sudda davlat ayblovini qo'llab-quvvatlaydi, qonunga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortadi, shuningdek prokuratura to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq prokuror zarur chegaralar va normalarda daxlsizlikka ega.<sup>3</sup>

Qonunda nazarda tutilgan holatlar mayjud bo'lganda va surishtiruv yoki dastlabki tergov davomida qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot chorasi tanlanganda prokuror, shuningdek prokuorning roziligi bilan surishtiruvchi yoki tergovchi qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot chorasini qo'llash to'g'risida iltimosnama qo'zg'atish haqida qaror chiqaradi

Prokuror qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot chorasini qo'llash to'g'risidagi iltimosnomaning asosiligini tekshirib, unga rozi bo'lgan taqdirda, iltimosnama qo'zg'atish to'g'risidagi qaror va zarur materiallarni sudga yuboradi. Agar iltimosnama ushlab turilgan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga nisbatan qo'zg'atilayotgan bo'lsa, qaror va ko'rsatilgan materiallar ushlab turish muddati tugashidan kamida sakkiz soat oldin sudga taqdim qilinishi kerak.<sup>4</sup>

Prokuratura to'g'risidagi qonunda prokuror nazorati predmeti ko'rsatilgan unga ko'ra: quyidagilar nazorat predmeti hisoblanadi:

ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etuvchi muassasalarda shaxslar saqlanishining qonuniyligi;

ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish tartibi va sharoitlari haqidagi qonunchilikka rioya etilishi;

ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar, mahkumlarning, shuningdek jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini qo'llanilgan shaxslarning qonunda belgilangan huquq va majburiyatlariga rioya etilishi;

jinoyat-ijroiya qonunchiligin qo'llayotgan organ va muassasalar, mansabdor shaxslar faoliyatida qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash<sup>5</sup>

Prokuorning vakolatlari:

➤ Qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot chorasini qo'llash yoxud uy qamog'i bo'yicha qo'shimcha taqiq (cheklov) belgilash to'g'risida sudga iltimosnama kiritadi yoki iltimosnomaga rozilik beradi yoxud qamoqda saqlab turish yoki uy qamog'i muddatini uzaytirish to'g'risida sudga iltimosnama kiritadi;

➤ Jinoyatlarni tergov qilish, ehtiyyot chorasini tanlash, o'zgartirish yoki bekor qilish, uy qamog'i bo'yicha qo'shimcha taqiq (cheklov) belgilash haqida iltimosnama qo'zg'atish jinoyat

<sup>3</sup> Wikipedia internet sayti Manbaa ru.wikipedia.org/wiki/Прокурор

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi JPK 242-moddasi Manbaa Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-111460>

<sup>5</sup> Prokuratura to'g'risidagi qonunning 30-moddasi manba Lex.uz sayti <https://lex.uz/ru/docs/-106197>

tavsifini belgilash, ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalg qilish, ayrim tergov harakatlarini bajarish va jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirish to‘g‘risida yozma ko‘rsatmalar beradi;<sup>6</sup>

Prokurorlar bundan tashqari:

Surishtiruv va tergov ustidan nazoratni amalga oshirishda shuningdek, shuningdek, dastlabki tergov va ayblanuvchilarni qamoqda saqlash muddatlarini uzaytirish, ayblov xulosasi tasdqlash talab etadiga hollarda, shaxsga nisbatan aylov e’lon qilishda mazkur qarorning asosligini holisona o‘rganish talab etiladi. Bundan tashqari prokuror mazkur qarirlarni bekor qilish (o‘zgartirish) masalasini ham muhokama qilishi kerak;

Tergov jarayonida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyyot chorasini ko‘rib chiqayotgan vaqtida, qonunda ko‘rsatib o‘tilgan asoslar vujudga kelgan taqdirda, bu asoslar tegishli qarorda to‘liq ko‘rsatilgan holda gumonlanuvchi yoki ayblanuvchining qamoqdan ozod qilish masalasini ko‘rib chiqishi lozim;

Jinoyat protsessida fuqorolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishi yuzasidan prokuror nazoratini ta’minalashda Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Inson qadr-qimmatini kamsituvchi harkatlar, qynoq va boshqa tayziqlarga qarshi kurashish borasida” konvensiya va bu boradagi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi boshqa qonun hujjatlariga qat’iy riosa etishlari shart;

Tergov va surishtiruv davomida fuqorolarni qyinoqqa solish, qo‘rqitish, urish do’pposlash, ularga azob berish, ruhiy va jismoniy ta’sir ko‘rsatish yoxud boshqa g‘ayriqonuniy usullar bilan dalillarni to’plash holatlari aniqlangan taqdirda zudlik bilan aybdor shaxslarni qonunda ko‘rsatilgan javobgarlikka tortish masalasini hal etish;

Tergov va vaqtincha saqlash hibsxonalarida saqlanayotgan mahbuslarda tan jarohatlarining aniqlanishi holatlari bo‘yicha hujjatlar ishi tasdiqlovchi ma’lumotlarni jinoyat protsessual qonuni talablari asosida huquqiy baho berish;

Jinoyat sodir etishda gumonlanib ushlangan va qamoqqa olish shaxslarni qonunga zid tarzda tergov va surishtiruv uchun maqbul ko‘rsatuv berishga majbur qilish hollariga yo‘l qo‘ymasligi talab etiladi;

Surishtiruv va dastlabki tergovning har tomonlama, to‘liq va holisona o’tkazlishi ustidan nazoratni ta’minalashda, shuningdek davlat ayblovini qo’llab quvvatlash chog‘ida dalillarning jinoyat protsessual qonunchilik talablari asosida vakolatli mansabdor shaxs tomonidan olinganligi, ularning ishga aloqadorligi va ishonchliligi nuqatai nazaridan to‘liq ravishda qonuniy asosli va adolatliligi tekshirish lozim.<sup>7</sup>

Prokurorlarlar jinoyat ishini har tomonlama to’la va xolisona o’tkazilishini ta’minalash maqsadia quidagi vakolarlarga ham egadir:

⊗ Tergov faoliyatida jinoyatlarni aniqlash, fosh etish, dalillarni topish, olish, protsessual mustahkamlash, isbotlashga qaratilgan xatti-harakatlar amalga oshirishda zamonaviy texnikalarni qo’llash orqali ishning tashkiliy darajasini takomillashtirish;

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 382-moddasi Manbaa Lex.uz sayti <https://lex.uz/acts/-111460>

<sup>7</sup> Prokuror nazorati o‘quv qo’llamma Toshkent 2009-y 291-300 betlar  
<https://drive.google.com/file/d/1CRVh9IWtXBYZBK9bQcU4D4DasqeCKU5j/view>

❖ Prokuror va tergovchilarning faoliyat samaradoligini oshirish, ish vaqtini, kuchini, moddiy vositlar va imkoniyatlarni bekoraga sarflamaslik va bu birada keraksiz yo'qotishni bartaraf etish;

❖ Ushbu vazifalani hal etish boshqarma (bo'lim) boshqaruvi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rribosarlari buyruqlari, ko'rsatmalari, hay'at va Muvofiqlashtiruvchi kengash qarorlari asosida uch asosiy yo'naliш bo'yicha amalga oshirishi mumkin:

➢ Jinoyatlarni tergov qilishda qonuniylikni nazorat qilish bo'yicha ishni tashkil etish;

➢ Jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ishni taskil etish;

➢ Prokuratura idoralari tergovchilarining o'zлari xizmat qiladigan hududlardagi ishi ustidan rahbarlikni ta'minlash

Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llash to'g'risida iltimosnomasi qo'zg'atish va tergovchining bu haqda qaroriga rozilik berish bo'yicha qonunda qayd etilgan vakolatlar quidagi prokurorlarga tegishli bo'lisci belgilab qo'yilsin:

- Tuman-shahar miqyosidagi tergov organi ish yurituvida bo'lgan jinoyat ishlari bo'yicha tegishli tuman-shahar prokurorlari va unga tenglashtirilgan prokurorlar yoki ularning o'rribosarlariga;

- Viloyat va ularga tenglashtirilgan miqyosidagi tergov organi ish yurituvidagi jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va ularga tenglashtirilgan prokurorlar yoki ularning o'rribosarlariga;

- Respublika miqyosidagi tergov organi ish yurituvidagu jinoyat ishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rribosarlariga

Shuningdek, yuqori turuvchi turuvchi prokurorlar o'z vakolatlari doirasida quyi turuvchi tergov organlari ish yurituvida bo'lgan jinoyat ishlari bo'yicha qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llash to'g'risida iltimosnomasi qo'zg'atish haqidagi tergovchining qaroriga rozilik berishi mumkin<sup>8</sup>

Shunday qilib mazkur maqolada prokuorming jinoyat protsessida qonunlarni nazoratdagi ishtiroki hamda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llashda roziligini o'rni va ahamiyatini tahlil qildik.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

**1.** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 118-moddasi manba Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-20596>

**2.** 2007-yil 14-noyabrdagi Sudga qadar ish yuritish bosqichida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasingning sudlar tomonidan qo'llanilishi to'g'risdagi 16-sod Oliy sud plenumining qarori Manbaa Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-1595235>

**3.** Wikipedia internet sayti Manbaa ru.wikipedia.org/wiki/Прокурор

**4.** O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi 242-moddasi Manbaa Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-111460>

<sup>8</sup> M.G'Esonov, S.Y Polvonov. Tergov va surishtiruv ustidan nazoratni tashkil etish T..., 1998-y, 3-bet Manbaa <https://proacademy.uz/postfiles/books/h7/py/index.html>

- 5.** Prokuratura to'g'risidagi qonunning 30-moddasi manba Lex.uz sayti  
<https://lex.uz/ru/docs/-106197>
- 6.** O'zbekiston Respublikasi JPK ning 382-moddasi Manbaa Lex.uz sayti  
<https://lex.uz/acts/-111460>
- 7.** Prokuror nazorati o'quv qo'llamma Toshkent 2009-y 291-300 betlar  
<https://drive.google.com/file/d/1CRVh9IWtXBYZBK9bQcU4D4DasqeCKU5j/view>